

TA'LIM JARAYONIDA MUAMMOLI TA'LIM METODIKASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Abdivaliyeva Shahnoza, Xushmurodov Xusan va Maxmasoliyev Javlonbek
SamDTU Tibbiy pedagogika fakulteti 602-guruh talabalari

Muratova Sh.M.

Ilmiy rahbar:

ANNOTATSIYA

Ta'lim jarayonida muammoli ta'lim metodikasidan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fiklashi va fikrining qay darajada to'g'riligini tushuntira olishdagi to'siqlarni yengishi uchun qiladigan harakatini oshirish mumkin. Bundan tashqari yuqorida aytganimizdek kam faollikka ega bo'lgan va melanxolik tipidagi bollarga ham o'zining mustaqil fikrini aytib berishga sharoit yaratolamiz.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, "Aqliy hujum", "Esse", "Ven diagrammasi", Evtanaziya, metod, melanxolik

Jadal rivolanayotgan hozirgi axbarot texnologiyalar zamonida dars mashg'ulotlari jarayonida xilma-xil va yangicha dars o'tish usul va metodlari qo'llanmoqda. Bular albatta o'quvchiga beriladigan ta'lim sifatiga o'zining samarali ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Masalan, "Aqliy hujum" orqali o'quvchidagi tezkorlik, "Esse" usuli orqali ta'lim oluvchiga berilgan vazifalarni qay darajada o'zlashtirilganligi, "Venn diagrammasi" orqali esa fikrlash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Shu o'rinda hozirda ko'p qo'llanilayotgan "Muammoli ta'lim" metodikasi ham dars jarayonida o'qituvchining ishtirokini kamaytirish va o'quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning mavzuga doir fikr va g'oyalarining erkin ilgari surilishi uchun sharoit yaratiladi. O'quvchilar o'rtasida muloqot jarayonida har bir tinglovchining o'z dunyoqarashi yanada takomillashib mavzuga nisbatan o'zining takliflarini aytishni o'rganadi. Ayniqsa bu metodning boshqa metodlaridan ustunligi shundaki, mashg'ulot jarayonida sust qatnashovchi va kam faollikka ega bo'lgan o'quvchilar doirasida ham darsni qamrab olishga yordam beradi. Ushbu muammoli holatni yechishda ko'pchilik muhokamasini talab qilinadi. Har bir o'quvchining xulosalari to'g'riligini tekshirib olishga yordam beradi.

Keyingi holda har bir guruhga o'zi tanlagan yo'nalishining qarama-qarshisiga nisbatan ular tanlagan yo'nalishning kamchiliklari haqida fikrlar aytish so'raladi. Shu orqali har bir guruhning aytgan to'g'ri fikri uchun yana ball qo'yadi. Bu orqali bolalar o'rtasida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari qay darajada shakllanayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Endigi galda o'qituvchi har bir guruhdagi shu fikrni yoqlaganlarga o'zi shunday vaziyatda nima qilishi mumkinligi, nega bunday qilayotgani so'raladi va buni boshqa o'quvchilar tomonidan o'zgartirilmasligi uchun birorta varaqqa yozib berish aytiladi. Shu orqali o'quvchilarning hammasini dars jarayonida qamrab olish ta'minlanadi.

Bu metodni aynan ijtimoiy sohalarida va gumanitar fanlar doirasida qo'llash yuksak samaradorlikka erishishga imkon beradi. Aniq fanlar doirasida fikrning xatoligi yoki to'g'riligini isbotlash oson bo'lgani o'quvchilar o'zining fikri xato ekanligi uchun tushkunlikka tushmasligini hisobga olsak bu metodni qo'llamagan ma'qul.

Bunda o'quvchilar o'zlari oldin egallagan bilim, tajriba, ko'nikma va malakalarga tayanib, muammoli vaziyatlarni yechishga kirishadi. Muammoli ta'lim metodi amaliyotda so'z vositalari, ko'rgazmali, amaliy ishlar metodlari yordamida qo'llaniladi. Bu o'rinda o'qituvchi quyidagilardga alohida ahamiyat berishi kerak:

O'zining bugungi o'tadigan mashg'ulotiga doir muammoli holat yaratadi. Masalan, savollar qo'yadi, masalalar tavsiya qiladi, tajriba topshiriqlarini beradi, vaziyat yaratadi. Keling birorta mavzu doirasida bu metodni qo'llab ko'ramiz.

Misol bugun ta'lim beruvchi "Zamonaviy tibbiyotda "Evtanaziya" ning o'rni" mavzusida o'quvchilarga dars berishi kerak. Bunda murabbiy o'quvchilarga Evtanaziya tushunchasiga batafsil ta'rif berib o'tgach o'quvchilarni ikkiga ajratadi. Bunda alohida ahamiyatni guruhdagi o'quvchilarning bo'linishiga qaratish kerak. Aynan guruh o'qituvchining hohishiga qarab emas, balki o'quvchilarning o'zi tomonidan tabiiy yaratilishi kerak.

Masalan, evtanaziyani yoqlovchilar bu tomonga o'tsin, unga qarshi chiqadigan esa bu tomonga deb aytsa, tabiiy hamma guruhini o'zi tanlagan holda guruhlarga bo'linadi. Shundan so'ng guruhlar o'rtasida sun'iy raqobat muhiti shakllantiriladi. Buning uchun murabbiy har bir guruhga o'zi tanlagan yo'nalishning afzalliklarini va qulayliklarini aytishni buyuradi. Shundan so'ng har bir aytilgan to'g'ri va ma'qul deb topilgan fikrga guruhlarga ball qo'yadi.

Keyingi holda har bir guruhga o'zi tanlagan yo'nalishining qarama-qarshisiga nisbatan ular tanlagan yo'nalishning kamchiliklari haqida fikrlar aytish so'raladi. Shu orqali har bir guruhning aytgan to'g'ri fikri uchun yana ball qo'yadi. Bu orqali bolalar o'rtasida jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalari qay darajada shakllanayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Endigi galda o'qituvchi har bir guruhdagi shu fikrni yoqlaganlarga o'zi shunday vaziyatda nima qilishi mumkinligi, nega bunday qilayotgani so'raladi va buni boshqa o'quvchilar tomonidan o'zgartirilmaligi uchun birorta varaqqa yozib berish aytiladi. Shu orqali o'quvchilarning hammasini dars jarayonida qamrab olish ta'minlanadi.

Bu metodni aynan ijtimoiy sohalarda va gumanitar fanlar doirasida qo'llash yuksak samaradorlikka erishishga imkon beradi. Aniq fanlar doirasida fikrning xatoligi yoki to'g'riligini isbotlash oson bo'lgani o'quvchilar o'zining fikri xato ekanligi uchun tushkunlikka tushmasligini hisobga olsak bu metodni qo'llamagan ma'qul.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu metod orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va fikrining qay darajada to'g'riligini tushuntira olishdagi to'siqlarni yengishi uchun qiladigan harakatini oshirish mumkin. Bundan tashqari yuqorida aytganimizdek kam faollikka ega bo'lgan va melanxolik tipidagi bollarga ham o'zining mustaqil fikrini aytib berishga sharoit yaratolamiz. Demak, bu albatta kelajakda har bir ta'lim oluvchining o'z shaxsiy hayotida fikrlarning va yuzaga keladigan har xil muammoli vaziyatlarga har tomonlama yondoshishiga ko'mak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Pedagogika va psixologiya Г.Я. Гулямова, С.М. Чиниева. 2019 у. 216-bet
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
3. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T, 1997.
4. I.Karimov. "Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman".T,2000
5. Sh.Mirziyoev."O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirdagi nutqi".T,2018.
6. Pedagogika.(qo'llanma.A.Munavvarov tahriri ostida)T,1996. •Pedagogika (qo'llanma. Prof A.Ilina tahriri ostida) M,1984.
- 7.ZununovA. Badiiy asar tahlili :Adabiyot yqituvchilari uchun qo'llanma.- Toshkent. 1989y.
8. R.Ishmuxammedov,M.Mirsolieva O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. Metodik qo'llanma.2014y.
9. Karimov I.A. "YUksak ma'naviyat-engilmas kuch" Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent 2008yil.